

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashg'ulotlarning milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Madaniyat, san'at, ko'ngilochar va dam olish, rassomchilik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohalari tarmog'i bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Madaniyat va san'at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish, milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash hamda ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish borasida tizimli chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga mustaqillik, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'analari sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning muttasil ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ko'plab ommaviy-madaniy tadbirlar tashkil etildi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi belgilanganligi, mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Xususan, davlatning madaniyat va san'at yo'nalishida iqtidori yuqori bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta'lim olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi talab etilmoqda.

Shu maqsadlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni

bilan tashkil etildi. Vazirlik aholini madaniy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi hamda o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Madaniyat tarmog'i vazifasi – madaniyat va san'at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish Vazirlik faoliyatini quyidagicha tavsiflash mumkin.

Vazirlik vazifalari: milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash hamda ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga mustaqillik, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'analarga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning muttasil ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni amalga oshirish;

- badiiy ijod, shu jumladan, teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirishni rag'batlantirish, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish;

- madaniyat muassasalari, jumladan, teatrlar, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari hamda boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish, ma'naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishida ushbu muassasalar imkoniyatlaridan yanada to'liq foydalanish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, ijodiy uyushmalar va boshqa tashkilotlar bilan faoliyatning asosiy vazifalari hamda yo'nalishlarini, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda, madaniyat va ijodiy muassasalar ishining samaradorligini ta'minlashda mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida takomillashtirish, moddiy rag'batlantirish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ilg'or xalqaro tajribadan foydalanish, madaniy-ma'rifiy muassasalar va ta'lim muassasalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash;

- davlatlararo va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizning madaniy merosini, ijodiy jamoalari va mualliflari asarlarini, jumladan, konferensiyalar va ko'rgazmalar, madaniy tadbirlar

va anjumanlar o'tkazish yo'li bilan chet ellarda keng targ'ib qilish, madaniyat sohasiga xorijiy investitsiyalar va grantlar jalb etish, shuningdek, madaniyat sohasiga oid ommaviy adabiyotlarni chop etish, video va kino materiallar tayyorlash;

- jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'pmillatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

- millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda ko'maklashish.

Vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlari: madaniyat va san'at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish;

- milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash va ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga mustaqillik, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'analarga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning muttasil ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni amalga oshirish sohasida:

- badiiy ijod, shu jumladan, teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirishni rag'batlantirish, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish sohasida:

- madaniyat muassasalari, jumladan, teatrlar, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari hamda boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish, ma'naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishida ushbu muassasalar imkoniyatlaridan yanada to'liq foydalanish sohasida:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jumladan, mahalliy hokimiyat idoralari, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, ijodiy uyushmalar va boshqa tashkilotlar bilan faoliyatning asosiy vazifalari hamda yo'nalishlarini, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda, madaniyat va ijodiy muassasalar ishining samaradorligini ta'minlashda mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish sohasida:

- madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida takomillashtirish, moddiy rag'batlantirish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ilg'or xalqaro tajribadan foydalanish, madaniy-ma'rifiy muassasalar va ta'lim muassasalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash sohasida:

- davlatlararo va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizning madaniy merosini, mamlakatimiz ijodiy jamoalari va mualliflari asarlarini, jumladan, konferensiyalar va ko'rgazmalar, madaniy tadbirlar va anjumanlar o'tkazish yo'li bilan chet ellarda keng targ'ib qilish, madaniyat sohasiga xorijiy investitsiyalar va grantlar jalb etish, shuningdek, madaniyat sohasiga oid ommaviy adabiyotlarni chop etish, video va kino materiallar tayyorlash sohasida:

- jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'pmillatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash sohasida:

- millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda ko'maklashish.

Tarmoq malaka ramkasi (TMR) ning asosiy maqsadi- Madaniyat va san'at sohalarida e'tirof etilgan kasblar (lavozimlar) malaka darajalarining tizimli tavsifini shakllantirish, sohani rivojlantirish istiqbollari va strategiyasini inobatga olgan holda mavjud malakalarga qo'yiladigan talablarni belgilash, shuningdek kasblarni malaka darajalari bo'yicha xaritalash.

TMRning vazifasi – Madaniyat va san'at sohalarida qo'llaniladigan va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda xodimlarning funksional xulq-atvori, ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat bo'lib, bu keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

TMR kasbiy standartlarni (keyingi o'rinlarda – KS) ishlab chiqish uchun malaka darajalarining yagona shkalasini belgilash, malakalarning o'zaro taqqoslanishi ta'minlash, mutaxassislarning malakaga muvofiqligini baholash hamda malakani tan olish tizimi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

ijodkor — kasbiy yoki nokasbiy asosda (havaskorlik asosida) madaniy faoliyatning bir yoxud bir necha yo'nalishi bo'yicha ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs;

ijodiy jamoa — ijodkorlardan va boshqa mutaxassislardan tarkib topgan, madaniy faoliyatning bir yoki bir necha yo'nalishi bo'yicha ijodiy faoliyat bilan

shug'ullanish uchun tashkil etilgan kasbiy yoki nokasbiy jamoalar (havaskorlik jamoalari);

ijodiy faoliyat — madaniyat obyektlarini barpo etishga, takrorlashga, tarqatishga, tiklashga yoki saqlashga, shuningdek madaniyatni rivojlantirishga doir faoliyat;

kasb — ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

ko'nikma — mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

madaniy tadbirlar — madaniy faoliyat sohasidagi madaniy-tomosha tadbirlari, madaniy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlar;

madaniy tadbir tashkilotchisi — tashabbusiga ko'ra madaniy tadbir o'tkaziladigan va (yoki) bunday tadbirga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir tashkiliy yoki moliyaviy yoxud moddiy ta'minotni amalga oshiradigan yuridik yoki jismoniy shaxs;

madaniyat xodimi — madaniy xizmatlar ko'rsatadigan va (yoki) maxsus madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni baholash va aniqlashni amalga oshiradigan, belgilangan talablarga javob beradigan zarur malakaga ega bo'lgan xodim.

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi — mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari — xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim — ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

tajriba — muayyan vaqt davomida bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi va samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan ongli faoliyat.

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'RQ-668-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida Madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-114-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Madaniyat va san'at sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-214-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda "Milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustda "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-sentyabrda "o'zbekiston respublikasi madaniyat vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 558-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-yanvarda "Madaniyat va san'at sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 25-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-aprelda "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 207-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar:

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

NFT – atamasi ingliz tilidan olingan abbreviatura bo'lib "Non Fungible Token", ya'ni "almashtirilmaydigan token" degan ma'noni anglatadi. NFT- yagona nusxada mavjud bo'ladi. NFT – kriptovalyuta emas;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Madaniyat, san'at, ko'ngilochar va dam olish, rassomchilik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohasining tavsifi: jamiyatning ma'naviy, estetik va ijodiy qadriyatlarini shakllantirish, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. U san'at, adabiyot, teatr, muzey, kutubxona, madaniyat markazlari va ommaviy tadbirlar orqali namoyon bo'ladi. Sohada milliy merosni asrash, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish va aholining estetik didini yuksaltirish ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, madaniyat jamiyatning ijtimoiy birligi va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Madaniyat, san'at, ko'ngilochar va dam olish, rassomchilik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

Seksiya nomi: S – San'at, sport va dam olish.

O'zbekiston Respublikasida Madaniyat, san'at, ko'ngilochar va dam olish, rassomchilik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	S - San'at, sport va dam olish	90 - Badiiy ijod va ijro san'ati sohasidagi faoliyat	90.1 - Badiiy ijod sohasidagi faoliyat	90.11 - Adabiy ijod va musiqiy kompozitsiya sohasidagi faoliyat	90.11.0 - Adabiy ijod va musiqiy kompozitsiya sohasidagi faoliyat
2				90.12 - Tasviriy san'at yaratish sohasidagi faoliyat	90.12.0 - Tasviriy san'at yaratish sohasidagi faoliyat
3			90.2 - Ijro san'ati sohasidagi faoliyat	90.20 - Ijro san'ati sohasidagi faoliyat	90.20.0 - Ijro san'ati sohasidagi faoliyat
4			90.3 - Badiiy ijod va ijro san'ati sohasidagi yordamchi faoliyat turlari	90.31 - Teatr va konsert zallari faoliyati	90.31.0 - Teatr va konsert zallari faoliyati
5				90.39 - Boshqa badiiy ijod va ijro san'ati sohasidagi yordamchi faoliyat turlari	90.39.0 - Boshqa badiiy ijod va ijro san'ati sohasidagi yordamchi faoliyat turlari
6		91 - Kutubxonalar, arxivlar,	91.1 - Kutubxona va arxiv faoliyati	91.11 - Kutubxona faoliyati	91.11.0 - Kutubxona faoliyati

7		muzeylar va boshqa madaniyat obyektlari	91.2 - Muzeylar faoliyati hamda kolleksiya tarixiy joy va yodgorlik bilan bog'liq faoliyat	91.21 - Muzeylar faoliyati hamda kolleksiya bilan bog'liq faoliyat	91.21.0 - Muzeylar faoliyati hamda kolleksiya bilan bog'liq faoliyat
8				91.22 - Tarixiy joy va yodgorlik bilan bog'liq faoliyat	91.22.0 - Tarixiy joy va yodgorlik bilan bog'liq faoliyat
9			91.3 - Madaniy merosni saqlash, tiklash va boshqa qo'llab-quvvatlash tadbirlari	91.30 - Madaniy merosni saqlash, tiklash va boshqa qo'llab-quvvatlash tadbirlari	91.30.0 - Madaniy merosni saqlash, tiklash va boshqa qo'llab-quvvatlash tadbirlari
10		93 - Sport, dam olishni va ko'ngil ochishni tashkil etish sohasidagi faoliyat	93.2 - Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha faoliyat	93.21 - Istirohat bog'lari va tematik bog'lar faoliyati	93.21.0 - Istirohat bog'lari va tematik bog'lar faoliyati
11				93.29 - Boshqa toifalarga kiritilmagan dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha boshqa faoliyat	93.29.0 - Boshqa toifalarga kiritilmagan dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha boshqa faoliyat

TMR quyidagi kasbiy guruhlar va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	11111	Siyosiy davlat fuqarolik xizmatchilari
2	11121	Yuqori lavozimli davlat xizmati rahbarlari
3	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
4	12230	Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bo'limlari rahbarlari
5	12221	Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati rahbarlari
6	13303	Media (kino, video, teleko'rsatuv, audio va musiqa yozuvlari) sohasida xizmatlar va bo'limlar rahbarlari
7	13490	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k.
8	14311	Madaniyat, ko'ngil ochish va dam olish sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari (obyekt boshqaruvchilari)
9	21632	Charm, poyabzal va yengil sanoat dizaynerlari
10	23420	Maktabgacha ta'lim o'qituvchilari
11	26221	Kutubxonachilar
12	26213	San'at asarlari qo'riqchilari
13	26332	Tarixchilar
14	26422	Muharrirlar (yangiliklar va davriy nashrlar bo'yicha)
15	26511	Rassomlar
16	26512	Haykaltaroshlar
17	26523	Dirijyorlar
18	26524	Konsertmeysterlar
19	26525	Xonandalar
20	26529	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan musiqachilar, xonandalar va bastakorlar, b.g.k.
21	26531	Xoreograflar
22	26541	Rejissyorlar (reklama va kompyuter o'yinlaridan tashqari)
23	26543	Ovoz rejissyorlari
24	26542	Prodyuserlar (reklama va kompyuter o'yinlaridan tashqari)
25	26550	Aktyorlar
26	26562	Dublyaj bo'yicha professional-mutaxassislar
27	26569	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan radio, televideniye va ommaviy axborot vositalarining suxandonlari, b.g.k.
28	26599	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan san'at namoyondalari, b.g.k.
29	34320	Rassom-dekoratorlar va dizayner-bezovchilar
30	34331	Kutubxonalarning yordamchi xodimlari
31	34332	San'at galereyalari, muzeylar va turdosh sohalar texnik xodimlari
32	34350	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan san'at, madaniyat va oshpazlik san'ati sohasidagi yordamchi xodimlar, b.g.k.
33	73162	Xattotlar
34	73192	Tabiiy toshga ishlov beruvchi hunarmandlar

3. Tarmoq tahlili

Madaniyat va san'at sohasidagi xizmatlar bo'yicha ta'lim zamonaviy madaniyat ta'limining uzviy qismidir. Nisbatan mustaqil tizim sifatida shakllangan paytdan boshlab, madaniyat ta'limi odatda nisbatan to'liq shaklga ega bo'ldi, chunki u bevosita madaniyat va san'at yo'nalishida ijodiy ish bilan shug'ullanadigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasiga asoslanadi. Madaniyat va san'at sohasida o'ziga xos ta'lim tizimi ishlab chiqilgan. Umuman mamlakatda Oliy kasbiy ta'lim imtiyozli rivojlanishga erishdi, bu so'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasidagi xizmatlar ta'limning rivojlanishiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

Madaniyat sohasi tarmog'i quyidagi faoliyat yo'nalishlarni qamrab olishni maqsad qilgan.

Moddiy va nomoddiy madaniy meros hamda muzeylar sohasida:

- ajdodlar tomonidan to'plangan tarixiy va madaniy tajriba jamiyat a'zolarining individual va umumiy rivojlanishi uchun zaruriy shart ekanligini jamoatchilik ongiga singdirish, bu borada jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

- tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini aniqlash va davlat muhofazasiga olish, bu borada davlat va jamoat nazorati tizimini takomillashtirish;

- asrashga doir ishlarga va arxeologiya tadqiqotlariga ruxsatnoma berish, obyektlarni identifikatsiyalash, arxeologiya ashyolarini hisobga olishga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, obyektlar haqidagi barcha ma'lumotlarni yagona elektron axborot bazaga birlashtirish;

- chuqur ilmiy-tarixiy yondashuv asosida obyektlarning tarixiy-madaniy qimmati va noyobligiga putur yetkazmagan holda asrashga doir ishlarni bajarilishini yo'lga qo'yish, obyektlarga tabiiy va texnogen ta'sirlarning salbiy oqibatlarining oldini olish;

- nomoddiy madaniy meros elementlarini to'plash, hujjatlashtirish va muhofaza qilish, ularning saqlovchilarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid xorijiy davlatlardagi nomoddiy madaniy meros elementlarini yozib olish va saqlashga ko'maklashish;

- insoniyat taraqqiyoti va jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan yurtimizning madaniy merosini YUNESKOning tegishli ro'yxatlariga kiritish choralarini kuchaytirish;

- milliy muzey fondidagi muzey ashyolari va kolleksiyalarini ishonchli saqlash, fondni boyitib borish, ilmiy o'rganish, keng targ'ib etish va samarali foydalanish;

- muzeylarni boshqarishda samarali menejment va marketing usullaridan foydalanish, muzeylarning moddiy-texnik bazasini zamon talablari asosida yanada mustahkamlash, ularga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

Teatr, kino va sirk sohasida:

- zamonaviy pyesalar, milliy mumtoz, jahon klassik asarlari asosida teatrlarning uzoq muddatli repertuarini shakllantirish, teatrlarning mahalliy va xorijiy davlatlardagi gastrol faoliyatini tizimli amalga oshirish;
- tarixiy shaxslar, zamonamiz qahramonlari obrazlarini yaratish, teatr va kino asarlarining g'oyaviy-badiiy darajasini ko'tarish, xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish, teatr va kino tanqidchiligini kuchaytirish;
- xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat, buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetni yanada kuchaytirishda teatr va kino san'atining rolini oshirish;
- milliy kino mahsulotlarini keng targ'ib qilish va ularning xalqaro kinofestivallarda munosib o'rin egallashiga erishish;
- tarixiy haqiqat va real voqelikni yorqin aks ettiruvchi hujjatli va ilmiy-ommabop filmlar yaratish tizimini takomillashtirish;
- sirk dasturlarining badiiy saviyasini oshirish va tomoshabinlar qamrovini kengaytirish, xalqaro maydonda milliy sirk san'ati nufuzini yanada yuksaltirish;
- aholining sirk tomoshalariga qiziqishini inobatga olib, ko'chma sirklar faoliyatining samaradorligini oshirish, sirklarda xavfsizlik choralari kuchaytirish;
- teatr, kino va sirk muassasalarining moddiy-texnik bazasini zamon talablari asosida mustahkamlash va jihozlash.

Milliy musiqa san'ati sohasida:

- avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan milliy musiqa merosimizni asrab-avaylash, yangi sharoitlarda rivojlantirish va ulardan xalqimizni bahramand qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- kompozitor, bastakor va sozandalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, havaskorlar orasidan iste'dodli ijrochilarni aniqlash maqsadida turli darajadagi ko'rik-tanlovlarni o'tkazish, an'anaviy musiqa janrlarini yangi shart-sharoitlarda rivojlantirish maqsadida "ustoz-shogird" an'anasini yanada rivojlantirish;
- milliy va jahon kompozitorlari ijodiyotini insoniyat intellektual xazinasiga sifatida xalq orasida keng targ'ib qilish, zamonaviy ruhda yuksak badiiy asarlar yaratish, katta musiqiy asarlar, jumladan opera, simfoniya, konsert va oratoriya kabi mumtoz janrlarni rivojlantirish;
- yosh kompozitorlar, bastakorlar, musiqashunoslar va ijrochilarning ijod bilan samarali shug'ullanishlari uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni kengaytirish;
- O'zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibidagi badiiy jamoalar ijrosidagi musiqiy asarlarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyatini yuksaltirish hamda xalqning, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ'ib etish.

Milliy estrada san'ati sohasida:

- milliy qadriyatlar asosida estrada qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish va targ'ibotini kuchaytirish;

- iste'dodli estrada xonandalarini aniqlash va ularning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirishga, yoshlarni yuqori saviyadagi milliy estrada qo'shiqlari namunalari asosida tarbiyalashga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy tadbirlar, konsertlar va gastrollarni tizimli tashkil etish;

- Ta'lim muassasalarda tahsil olayotganlar uchun "mahorat darslari"ni o'tkazish va iste'dodli yoshlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratish;

- musiqa va san'at maktablarida "ustoz-shogird" an'alarini rivojlantirish hamda taniqli san'atkorlar ishtirokida ijodiy uchrashuvlar tashkil etish;

- ijodiy birlashmalar, jamoalar va yakkaxon ijrochilarning faoliyati, repertuarlari va ssenariylarining g'oyaviy va badiiy saviyasini oshirish.

Milliy raqs san'ati sohasida:

- milliy raqs san'atining rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, jahon madaniyatida tutgan o'rnini mustahkamlash va uning yangi namunalarini yaratish;

- "ustoz va shogird" an'anasi asosida milliy raqs sohasidagi yetuk raqs ustalari, iste'dodli va yuqori malakali ijrochilarning raqs maktablarini yaratish, ularning uslublarini tiklash va rivojlantirish;

- milliy raqs san'atining noyob merosini, shu jumladan milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi sahna liboslarini saqlab qolish, tiklash va yangilarini yaratish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda milliy raqs va xoreografiya san'atini badiiy jihatdan rivojlantirish;

- avloddan-avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan jozibali raqs namunalarini to'plash, boyitish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga bu bebaho boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg'ularini singdirish;

- mamlakatimizning barcha hududlaridagi raqs yo'nalishlarini asrash, avaylash, xalqimizga estetik zavq bag'ishlovchi zamonaviy o'zbek raqs maktabini yaratish.

Tasviriy va amaliy san'at sohasida:

- tasviriy va amaliy san'at, dizayn va xalq hunarmandchiligi sohalarida iste'dodli ijodkorlarni barvaqt aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash, ijodkorlarning badiiy salohiyatini oshirish tizimini takomillashtirish;

- xalq ustalarining o'ziga xos uslubi va maktabini davom ettirish, atoqli madaniyat va san'at arboblari bilan tajriba almashishda "ustoz-shogird" an'anasidan samarali foydalanish, shuningdek ijodiy ustaxonalar faoliyatini kuchaytirish;

- xalq amaliy san'ati an'alarini saqlash va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, xalq hunarmandchiligini qo'llab-quvvatlash;

- yurtimiz va xorijda keng ko'lamdagi ko'rgazmalar tashkil etish orqali milliy san'atimiz yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish;

- buyuk rassomlar, xalq ustalari va rassomlari, san'at arboblari va iste'dodli yosh ijodkorlarning sara asarlarini ommalashtirish.

Madaniyat va istirohat bog'lari hamda madaniyat markazlari sohasida:

- madaniyat va istirohat bog'larini hamda madaniyat markazlarining moddiy-texnik bazasini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish;

- istirohat bog'larining qiyofasini tubdan qayta ko'rib chiqish, ularda xalq sayillarini doimiy o'tkazish tizimini yaratish, attraksion va o'yin qurilmalarining texnik xavfsizligini ta'minlash;

- madaniyat markazlarida xalq badiiy havaskorlik va ijrochilik san'atini rivojlantirish, ularning shakl va usullarini takomillashtirishga ko'maklashish;

- joylarda madaniy-ma'rifiy faoliyatning samarali usullarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va targ'ib qilishga ko'maklashish.

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha tarmoq "Ijod, san'at va ko'ngil ochish sohasidagi faoliyat", "Kutubxonalar, arxivlar, muzeilar va boshqa madaniyat muassasalari" "Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha faoliyat" sinflariga tegishli. Faoliyat turi bo'yicha san'at, ko'ngil ochish va dam olish xizmatlarni qamrab olgan.

O'zbekiston Respublikasining 20 dan ortiq mahalliy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari madaniyat sohasida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanadi:

- O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti;
- O'zbekiston davlat konservatoriyasi;
- Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti;
- Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti;
- O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi;
- Andijon davlat pedagogika instituti;
- Buxoro davlat pedagogika instituti;
- Guliston davlat pedagogika instituti;
- Qarshi davlat universiteti;
- Shahrisabz davlat pedagogika instituti;
- Namangan davlat pedagogika instituti;
- Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti;
- O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti;
- Termiz davlat pedagogika instituti;
- Farg'ona davlat universiteti;
- Urganch davlat pedagogika instituti;
- Navoiy davlat pedagogika instituti;
- Nukus davlat pedagogika instituti;
- Jizzax davlat pedagogika instituti;
- Qo'qon davlat pedagogika instituti;
- Chirchiq davlat pedagogika instituti;
- Toshkent davlat pedagogika instituti;
- O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali;

Madaniyat va san'at sohasidagi oliy kasbiy ta'lim tizimi yangi davrga sezilarli darajada yangilangan mazmun va sertifikatlangan mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar bilan kirdi.

Yangi standartlar oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining foydalanish obyektlari va yo'nalishlari doirasini kengaytiradi: ular nafaqat madaniyat va san'at tizimida, balki mamlakatning boshqa zarur bo'lgan joylarda ishlashi mumkin.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasidagi kasbiy ta'lim tizimining o'zi ham jiddiy muammolarga ega. Madaniyatning barcha turlari oliy va o'rta kasbiy ta'limni talab qilmaydi va shuning uchun madaniyat sohasida boshlang'ich va o'rta kasbiy ta'lim tizimini bir xil va standart holga keltirishda kengaytirish va faol rivojlantirish zarur.

Hozirgi kunda ko'plab ta'lim muassasalari madaniyat sohasida mutaxassislarni tayyorlamoqda. Ammo faoliyatning yaxlit turi sifatida madaniyat va san'at sohasi bo'yicha ilmiy malakaga ega bo'lgan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Madaniyat va san'at sohasida rejalashtirilayotgan dasturlarni amalga oshirish bo'yicha zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, turli darajadagi mutaxassisliklarga ega bo'lgan malakali madaniyat va san'at xodimlariga ehtiyoj keskin oshdi.

Masalan, har bir viloyatda bir necha o'nlab davlat madaniyat muassasalari aholiga muayyan madaniyat va san'at yo'nalishlarda xizmatlarni ko'rsatib kelmoqda.

Barcha tumanlarda madaniyat bo'limlari hamda madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ta'lim muassasalar faoliyat yuritmoqda.

Madaniyat va san'at sohasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda Davlat ta'lim standarti mutaxassisning amaliy ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Bularga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish va ma'muriy jarayonlarni rejalashtiruvchi, loyihalashtiruvchi va nazorat qiluvchi, murakkab texnikaga xizmat ko'rsatuvchi, hujjatlarni ishlab chiquvchi, xodimlarni boshqaruvchi, tashkilot faoliyati jarayonlarini, shu jumladan, ularga farmoyish beruvchi vakolatlar berilmagan holda tartibga soluvchi, ta'lim beruvchi va sog'lomlashtiruvchi, ijodiy va ilmiy faoliyatni, shu jumladan, boshqa o'ziga xos funksiyalarni birgalikda amalda qo'llashdir.

Madaniyat va san'at sohasi ishchisining kasbiy faoliyati doimiy ravishda kengayib bormoqda va shunga mos ravishda ommaviy konsert-tomoshalari va madaniy tadbirlar soni ham yil sayin oshib bormoqda.

2017-yilda tashkil etilgan ommaviy konsert-tomosha va madaniy tadbirlar hamda teatrlarda sahnalashtirilgan spektakllarga 7 mlnga yaqin aholi (tomoshabin) qamrab olingan bo'lsa, 2024-yilga kelib mazkur tadbirlarga 13 mln nafardan ortiq aholi (tomoshabin) qamrab olindi.

Bundan tashqari aholiga dam olish va madaniy hordiq chiqarish maqsadida faoliyat olib borayotgan 120 dan ortiq istirohat bog'larida turli yoshdagi fuqarolar

uchun qulay, xavfsiz va sog'lom muhitda dam olish imkoniyatiga ega. Mazkur istirohat bog'lariga mavsum davomida 11 mln nafardan ortiq aholi tashrifi amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, respublikada 400 tadan ortiq kutubxonalar mavjud bo'lib, mazkur kutubxonalarda foydalanuvchilar soni 11,3 mlndan ortiq kishini tashkil etadi. Davlat tomonidan kutubxonalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kitobxonlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xususan, 2020–2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va moddiy-texnik bazani takomillashtirish, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish va kitob mahsulotlarini chop etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan.

Madaniy xodim kasbi, bir tomondan, bilim, ko'nikma va malakalarning integral va murakkab xarakterini, ikkinchi tomondan, tashabbuskorlikning namoyon bo'lishini talab qiladi. Madaniyat va san'at sohasidagi kompetensiya alohida ahamiyatga ega.

Ayni paytda Madaniyat vazirligi tizimida 36 mingga yaqin xodimlar faoliyat olib bormoqda.

Bundan tashqari bugungi kunda talab yuqori bo'lgan amaldagi kasblarga quyidagilarni misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Kutubxona, arxiv, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalari uchun:

- Muzey ekskursovodi;
- Arxivchi-tahlilchi (sifrovizatsiya bilan bog'liq);
- Kutubxonachilar (ayniqsa raqamli kutubxonalarda).

Quyidagi yangi kasblarni taklif sifatida ko'rsatish mumkin:

- Raqamli kutubxona menejeri;
- Madaniy ma'lumotlar bazasi administratori;
- Virtual reallik (VR) ekskursiya tuzuvchisi.

Shuningdek, dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etishda yuqori talabga ega kasblar:

- Tadbir rejalashtiruvchi (event planner);
